






2021- yilning yanvar-sentabr oylari uchun Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida jami **4706,6** mldr. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **120,2 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3481 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 238 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **2,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **66,7 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **6,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,5 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **24,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **24,8 %**) o'sishidir.



Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

| | holatiga ko'ra: | | O'tgan yilga nisbatan, % da |
|-----------------------------|-----------------|----------------|-----------------------------|
| | 01.10.2020-yil | 01.10.2021-yil | |
| Qashqadaryo viloyati | 3243 | 3481 | 107,3 |
| shahrlar: | | | |
| Qarshi | 833 | 894 | 107,3 |
| Shahrisabz | 135 | 147 | 108,9 |
| tumanlar: | | | |
| G'uzor | 146 | 151 | 103,4 |
| Dehqonobod | 145 | 165 | 113,8 |
| Qamashi | 179 | 185 | 103,4 |
| Qarshi | 376 | 410 | 109,0 |
| Koson | 270 | 302 | 111,9 |
| Kitob | 130 | 124 | 95,4 |
| Mirishkor | 83 | 82 | 98,8 |
| Muborak | 189 | 185 | 97,9 |
| Nishon | 115 | 121 | 105,2 |
| Kasbi | 146 | 165 | 113,0 |
| Chiroqchi | 196 | 221 | 112,8 |
| Shahrisabz | 115 | 115 | 100,0 |
| Yakkabog' | 185 | 214 | 115,7 |


Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra (ulushi, % da)



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qarshi sh. (25,7 %), Qarshi (11,8 %) va Koson (8,7 %) tumanlarida qayd etildi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1212,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **236,7 %** ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **12,7 %** punktga ko'payib, **25,8 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Muborak tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **67,5** % i yoki 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **4,3** marta ko'p), G'uzor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **56,4** % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,8** marta ko'p), Shahrisabz shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **38,4** % i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **131,6** %) ga to'g'ri keldi.




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'payishi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **52,5 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **8,9** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **103,3 %** ni tashkil etgan holda **2472,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **21,7 %** ni tashkil etdi yoki **1021,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **100,7 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlaring umumi hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **170,9** mlrd. so'm, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4535,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **3,6 %** va **96,4 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**Hududlar kesimida qurilish ishlari.
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)**

| | Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m) | O‘sish sur’ati, % da | Jami qurilish ishlari hajmida hududlarning ulushi % da |
|-----------------------------|--|-------------------------|---|
| Qashqadaryo viloyati | 4706,6 | 120,2 | 100,0 |
| shaharlar: | | | |
| Qarshi | 1276,1 | 115,7 | 27,1 |
| Shahrisabz | 246,2 | 110,4 | 5,2 |
| tumanlar: | | | |
| G‘uzor | 560,0 | 139,6 | 12,0 |
| Dehqonobod | 108,9 | 101,3 | 2,3 |
| Qamashi | 115,7 | 103,5 | 2,5 |
| Qarshi | 324,7 | 101,9 | 6,9 |
| Koson | 323,0 | 102,1 | 6,9 |
| Kitob | 303,4 | 124,4 | 6,4 |
| Mirishkor | 99,8 | 105,2 | 2,1 |
| Muborak | 251,7 | 186,4 | 5,3 |
| Nishon | 164,3 | 104,4 | 3,5 |
| Kasbi | 144,9 | 104,9 | 3,1 |
| Chiroqchi | 392,6 | 135,2 | 8,3 |
| Shahrisabz | 124,9 | 118,5 | 2,7 |
| Yakkabog‘ | 270,5 | 108,7 | 5,7 |

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar-sentabr oylarida

Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin 67,8 % i yoki **3189,6** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

67,8

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **867,3** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 27,2 % ni tashkil etdi.

27.2 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1408,7** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 44,2 % ni tashkil etdi.


44.2

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **913,6** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 28,6 % ni tashkil etdi.

28.6

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da




Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi

**2021- yil
yanvar-sentabr**

Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari

10

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari, mlrd. so'm.



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'satkichi Qarshi sh. (1276,1 mlrd. so'm), G'uzor (559,9 mlrd. so'm), Chiroqchi (392,6 mlrd. so'm) hamda Koson (323,0 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi
Tel.: 75 221-32-47